

Zamonaviy o'qituvchining pedagogik faoliyatida tizimli-modellashtirilgan sifatlar

B. Sobirov,

Navoiy davlat pedagogika instituti

Hozirgi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarda tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezident I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustivor maqsadimizdir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida, "Bu vazifa avvalombor demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lidan jadal va samarali ilgarilab borishdan iboratdir" – degan g'oyasi bilan uyg'undir¹.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'lim tushunchasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib quyidagicha ta'riflaydi: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. o'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi". Maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish va innovatsion yondashish bilan

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятни барпо этиш – устивор мақсадимиздир. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги маъруза. // Халқ сўзи, 28.01.2010.

uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-uslubiy faoliyatni ilg'or Pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga binoan oliy ta'limning maqsadi hozirgi davr talablariga javob beradigan, ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta'minlay oladigan va yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlashdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda zamonaviy o'qituvchining pedagogik faoliyatini tizimli-modellashtirish ta'lim berish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'qituvchining pedagogik faoliyati jamiyat talablariga mos ravishda o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltiriladi. Pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo'shib olib boriladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati tavsifida quyidagi sifatlari farqlanadi:

- konstruktivlik;
- tashkilotchilik;
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

O'qituvchi faoliyatini tavsiflash va baholash uchun quyidagi darajalardan foydalaniladi:

- reproduktiv. Bunda o'qituvchi faqat o'zining axborotlarini loyihalashtiradi, lekin o'quvchilarning saviyalarini hisobga olmaydi;

- moslashuvchanlik. Bunda o'qituvchi o'quv axborotlarini o'quvchilarning saviyalariga mos qilib modellashtiradi;

- lokal-modellashtirish. Bunda o'qituvchi axborotlarni bayon qilibgina qolmaydi, balki ayrim masalalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini modellashtirish olishi lozim;

- tizimli-modellashtirilgan bilim. Bunda konkret fanni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'z faoliyati va o'quvchilar faoliyati tizimini modellashtiradi;

- tizimli-modellashtirilgan faoliyat. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan birga barcha o'quv-tarbiya ishlari tizimini modellashtira oladi.

Tizimli-modellashtirilgan faoliyatda o'qituvchiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- jamiyat rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olish;

- muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish talablarining ijrosini ta'minlash;

- pedagogik faoliyatni sevish;

- o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lish;

- zakovatli bo'lish;

- pedagogik texnikaga egalik;

- yuksak yetuklik;

- umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;

- pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi va boshqalar.

Zamonaviy o'qituvchining tashkilotchilik faoliyatiga bugungi kunda pedagogik amaliyotda ko'p narsa bog'liq. Agar o'qituvchi o'zining tashkilotchiligi, shijoati, tashabbuskorligi bilan o'quv-tarbiya jarayonini aniq rejalashtirib olsa, pedagogik jamoadagi ko'pgina muammolar osonlikcha hal qilinadi. Bu uning tashkil etish malakasida ko'rinadi.

Tashkilotchilik faoliyati o'zini, o'zining vaqtini; o'quvchilarning individual, guruh, jamoat ishini; birgalikdagi tadqiqotlarini amalga oshirish uchun o'quvchilarni tanlab olish va ularning vazifalarini belgilab berishni tashkil etish malakasida namoyon bo'ladi.

Tashkilotchilik faoliyatining asosiy vazifasi shu faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini integratsiyalashdir.

Zamonaviy o'qituvchining ilmiy-bilish faoliyati atrof-olamni va o'zini chuqur va har tomonlama bilish malakasida ko'rinadi. O'qituvchi o'z tadqiqotlari, o'quvchilarning ilmiy faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qiladi.

Kommunikativlik faoliyati. Bu faoliyat kasbdoshlari va o'quvchilar bilan maqbul o'zaro aloqalarni belgilash malakasini ko'zda tutadi. Kommunikativlik faoliyati asosida o'qituvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyati yotadi.

Tizimli-modellashtirilgan faoliyatda zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifalari:

- yuksak ko'rsatkichli ta'limni ta'minlash va davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda hozirgi zamon ta'limiy va kasbiy dasturlar asosida malakali kadrlar tayyorlash;
- jamiyat talablariga javob beradigan istiqboldagi taraqqiyotga, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, zamonaviy fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan holda o'z saviyasini muntazam takomillashtirish;
- yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarni bilish asosida, milliy g'oyaga sadoqat, vatanga, oilaga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- axloqiy, madaniy, ilmiy, ekologik qadriyatlarni saqlash hamda ularni boyitish;
- shaxsning intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanish talablarini qondirish;
- o'quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvining joriy mexanizmlarini kiritib borish;
- fan, texnika, texnologiya ravnaqi, ilmiy pedagogik kadrlar va ta'lim oluvchilarning ilmiy tadqiqotlari samaradorligi va ijodiy faoliyatini o'stirish, olingan natijalardan ta'lim jarayonida foydalanish.

Shunday qilib, tizimli-modellashtirilgan faoliyatda zamonaviy o'qituvchi jamiyat talablariga javob beradigan, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotiga, zamonaviy fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga o'z hissasini qo'sha olishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustivor maqsadimizdir. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruza. // Xalq so'zi, 28.01.2010.